


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura  
mutaxassisligining malaka talablari*

Toshkent - 2023



**ISHLAB CHIQLIGAN:**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023 yil «07» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar". "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi .....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
2.4. Kvalifikatsiya.....	8
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>10</b>
<b>Kelishuv varag'i .....</b>	<b>11</b>

## **1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablarining qo'llanilishi**

Malaka talabi 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining magistrarlari;
- magistratura mutaxassisligining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan talabalar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari**

**70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi mutaxassisligi** – fan sohasidagi magistratura mutaxassisligi bo'lib, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarida magistratura mutaxassisligiga oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, pochta sohasiga oid korxonalar va ularning tuzilmaviy tizimlarining barcha shaklida xizmat ko'rsatish, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari**

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;
- o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarida;
- raqamli texnologiyalar va transport vazirligi tizimidagi korxonalarda;

- pochta sohasiga tegishli korxonalar va tashkilotlarda;
- boshqa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida;
- milliy xavfsizlik xizmatlari va ichki ishlar organlarida;
- davlat boshqaruv organlari, o'rta maxsus kasbiy, oliy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechishda.

70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratura bitiruvchilari fan sohasidagi magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so'ng, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarida korporativ pochta, pochta xizmatini strategik boshqarish, pochta texnologiyasida bulutli texnologiyalar va xizmatlar, ta'minot va sotuvni boshqarishda elektron xizmatlar va agregatorlar, yetkazib berishda zahiralarni boshqarishning raqamli texnologiyalari, transportda raqamli texnologiyalar va intellektual transport tizimlari, taqsimotni modellashtirish va buyurtmalarni boshqarish, omborlarni boshqarishda axborot tizimlari, xalqaro yetkazib berish zanjirlarida raqamli texnologiyalar, yetkazib berish zanjirlarini rejalashtirishda optimallashtirish modellari va vositalari fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, pochta sohasidagi tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik (Oliy ta'lim, o'rta maxsus, kasb hunar, oliy ta'lim tizimida).*

### **1.2.4. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlarning kasbiy vazifalari**

**70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi** bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura mutaxassisligi bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (magistratura mutaxassisligi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olgan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- pochta sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ishlab chiqarish faoliyatida:**

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- pochta sohasi qurilmalarida dasturiy ta'minot ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;
- pochta sohasi qurilmalarida dasturiy ta'minot ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini ta'minlash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- axborot-kommunikatsiya tizimlarining texnik vositalari, qurilmalari, uzatish, saqlash va qayta ishlash tizimlarini yig'ish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish lozim.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzab masalalarini bilish, O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasiga asoslangan bilimlarga ega bo'lish, mustaqil tahlil qilish, Vatan tarixi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyalar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olish va ilmiy asoslash, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan nuqtai nazarga ega bo'lish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zurruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullaridan foydalanish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish;
- tegishli magistratura mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh bo'lish, yangi bilimlarni mustaqil egallash, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilish;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarni tashkil etish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- pochta sohasida loyihalash usullarini tadqiq qilish;
- ma'lumotlar qayta ishlash jarayonlarini tahlil qilish, sintezlash va optimizatsiyalash usullarini qo'llash, mahsulotni sertifikatlashtirish;
- pochta sohasi qurilmalarining dasturiy ta'minotini yaratishda axborot bilan ishlash jarayonlari bo'yicha matematik modellarni qo'llash;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Oliy ta'lim, O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:**

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy xujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasimagistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### 2.1. Umumiy kompetensiyalar

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulsa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### 2.2. Kasbiy kompetensiyalar

- mutaxassislik ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirish; mutaxassislikka muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari;
- pochta tizimi uchun raqamli transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ishlab chiqarish, yetkazib berish, taqsimlash, zahiralarni boshqarish, ombor, transport logistikasida biznes jarayonlarini tahlil qilish, modellashtirish va optimallashtirish;
- ta'minot zanjirlarida bulutli texnologiyalardan, yetkazib berish va tarqatish boshqaruvida elektron xizmatlardan, transport jarayonlarida va intellektual transport tizimlarida axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- elektron biznes uchun optimal pochta yechimlarini tashkil etish, pochta xizmatlarini ilgari surish uchun internet-marketingni qo'llash;
- pochta sohasida noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida to'g'ri qaror qabul qilish, tashish va bojxona tartib-qoidalarida elektron hujjat aylanishini amalga oshirish, ta'minot zanjirlarida moliyaviy oqimlarni hisoblab chiqish;
- sanoat 4.0 kontekstida ilg'or tajribalar, zamonaviy metodologiya va tegishli vositalar hamda raqamli pochta texnologiyalarini ishlab chiqish;
- xalqaro aloqa, elektron tijorat va pochta boshqaruvida ta'minot zanjiri boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- zamonaviy usullarga asoslangan raqamli ta'minot zanjirlarida resurslarni optimallashtirish va qo'shimcha qiymat yaratish uchun innovatsion yechimlarni asoslash;
- pochta va ta'minot zanjirini boshqarishning funksional sohalarida pochta jarayonlarini raqamlashtirish va optimallashtirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy vositalardan foydalanish;
- jamoada ishlash uchun professional va psixologik bilim va ko'nikmalar, uzluksiz o'rganish va martaba o'sishi, maqsadlarga erishish qobiliyatlari borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

### 2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

### 2.3.1. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar

O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1200	40
Tanlov fanlar	480	16
Malakaviy amaliyot (Ilmiy amaliyot)	360	12
Yakuniy davlat attestatsiyasi	1560	52

### 2.3.2. 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	RMET14MMK	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	INFR14MMK	Axborotlarni izlash va ajratib olish	120	4	1
1.03	IAPM14MMK	Innovatsiya va loyihalarni boshqarish	120	4	2
1.04	ALAD14MMK	Algoritmlarni loyihalashtirish va tahlil qilish	120	4	2
1.05	AINN14MMK	Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlari	120	4	3
1.06	MTPL16MMK	Pochta va logistika injineriyasida ilg'or texnologiyalar	180	6	2
1.07	DSTP16MMK	Tarqatishni rejalashtirish	180	6	3
1.08	SCPS18MMK	Ilmiy pedagogik ish	240	8	
2.00		Tanlov fanlar	480	16	1,3
		<b>Jami</b>	<b>1680</b>	<b>56</b>	
		Malakaviy amaliyot (Ilmiy amaliyot)	360	12	
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	1560	52	
		<b>Jami</b>	<b>1920</b>	<b>64</b>	
		<b>Hammasi</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

### 2.4. Kvalifikatsiya: Pochta xizmatlarini tashkil etish muhandisi, tadqiqotchi, pedagog



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy kompetensiyalar, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'ekti, magistraturaning asosiy ta'lim dasturi (magistratura dasturi), magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari, magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari, umumiy kompetensiyalar, kasbiy kompetensiyalar, majburiy fanlar, tanlov fanlari, kvalifikatsiya, yakuniy davlat attestatsiyasi, malakaviy amaliyot, pochta texnologiyasi, raqamli logistika, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, pochta texnologiyasini strategik boshqarish, pochta texnologiyasida bulutli texnologiyalar, ta'minot va sotuvni boshqarishda elektron xizmatlar va agregatorlar, yetkazib berishda zahiralarni boshqarishning raqamli texnologiyalari, transportda raqamli texnologiyalar, intellektual transport tizimlari, taqsimotni modellashtirish, buyurtmalarni boshqarish, axborot tizimlari, pochta aloqasi texnologiyasi, Mahsulotlarni yetkazi berish xizmati.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQLIGAN:**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Rektor  prof. B. Maxkamov

M.O' 2023 yil « 24 » 07



**KELISHILGAN:**


**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,  
fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent  
davlat texnika universiteti**

Direktor  Sh. Yakubov

M.O' 2023 yil « 26 » 08



Rektor  prof. S. Turabdjyanov

M.O' 2023 yil « 25 » 07



**O'zbekiston pochta AJ**

Moliya bo'yicha  
direktor  R. Dadamuhamedov

M.O' 2023 yil « 25 » 07



**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**  
**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

"25" 07 2023- yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori prof. B.Maxkamov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti prof. S.Turabdjano, O'zbekiston pochta AJ Moliya bo'yicha direktori R.Dadamuhamedov birgalikda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv reja mazmuni bilan tanishib chiqib, qelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**70611401- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2017- yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017- yil 27- iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018- yil 5- iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtiroqini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 15- iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-son farmoyishiga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'riy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori**

**prof. B.Maxkamov**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori**

**prof. S.Turabdjano**

**O'zbekiston pochta AJ Moliya bo'yicha direktori**

**R.Dadamuhamedov**

